



ETNOGRAFIYADA DALA TADQIQOTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Hakimova Aziza Hikmatjon qizi.

Buxoro viloyati Kogon tuman 11-maktab tarix fani o‘qituvchisi .

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq moddiy madaniyati, tarixini o‘rganishda dala tadqiqotlarining olib borilishi, asosiy usullari va amaliy metodologiyasi, ularning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ekspeditsiya, madaniyat, statsionar, so‘rovnom, uzoq-qisqa muddatli tadqiqot.

Annotation. This article discusses the main methods and practical methodology of conducting field research in the study of folk material culture and history, as well as their importance.

Keys word. Expedition, culture, stationary, questionnaire, long-term and short-term research.

Аннотация. В данной статье рассматривается об проведение полевых исследований, их основные методы и практическая методология, их значение в изучении материальной культуры и истории народа.

Ключевые слова. Экспедиция, культура, стационарные, анкета, долгосрочные и краткосрочные исследования.

Zamonaviy etnologiyada o‘ziga xos tadqiqot metodlari majmui shakllangan bo‘lib, ularga dala tadqiqotlari, yozma manbalarni o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish kiradi.

Etnografiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishida bevosita xalqning hayotini o‘rganish ya‘ni dala tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Dala ishlari metodining shakllanishi mustamlaka xalqlar xo‘jaligi, ijtimoiy tuzilmalari, e‘tiqodi,



urf-odatları to'g'risida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lish ehtiyoji tufayli shakllangan¹.

Dala tadqiqotlari metodi ilmiy izlanuvchiga o'rganilayotgan etnik muhitda uzoq muddat bo'lish va bevosita o'sha muhitga moslashishni talab qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiqotchi uchun, odatda, mavjud obyektida statsionar tarzda ishlash muddati bir etnik yildan kam bo'lmasligi kerak. Etnolog-tadqiqotchi uchun dastlabki 2-3 oy tanishish va yangi muhitga moslashish davri hisoblanadi. Shundan keyingina u etnik jamoa yoki uning bir qismi turmush tarzini yil mobaynida ilmiy nuqtai nazardan kuzatadi.

Aholi madaniyati va hayotini o'rganish statsionar hamda uzoq va qisqa muddatli ekspeditsiyalarda amalga oshiriladi. Statsionar tadqiqotlarning kamchiligi o'rganish joyi, aholi sonining tor doirada bo'lishi hisoblanadi². Qisqa muddatli yoki oddiy ekspeditsiya dala tadqiqotining eng keng tarqalgan shakli bo'lib, etnografik materiallarning aksariyati shu tarzda to'planadi. Ekspeditsiyalar muddati, vazifasi, bajariladigan ishlariga qarab bir necha haftadan bir necha oygacha davom etadi³.

Bunday ekspeditsiyalar odatda, katta hududlarni qamrab oladi hamda bir nechta aholi guruhlarini o'rganadi. Ekspeditsiya xodimlari turli maqsadlarni qo'yadi. Oilaviy munosabatlar, aholi moddiy madaniyati, marosimlarni o'rganib, ularni tahlil qilish joylarda uzoq vaqt qolishni talab qilmaydi. Nisbatan qisqa vaqt ichida hudud aholisi kiyim-kechaklari, madaniyati, kundalik hayotining boshqa ko'plab jihatlari haqida ma'lumotlar to'plash mumkin. Qisqa muddatli ekspeditsiyalar muayyan etnografik hodisalarning tarqalish chegaralari va dastlabki ma'lumotlarni aniqlashtirishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Dala etnografik materiallarni o'rganish va yig'ishning marshrut va klaster singari asosiy usullari mavjud. Klaster so'rovi davomida o'rganilayotgan hududda tayanch nuqtalari belgilanadi, materiallarni yig'ish jarayonida olingan

¹ Ashirov.A, Atadjanov.Sh "Etnologiya", - T. O'qituvchi 2008. –B 32

² Салимов Т.Ў. Этнографик экспедициялар ўтказиш услублар, -Г.:”Университет”,1993.-Б.7.

³ Громов.Г Методика этнографических экспедиций. –М., 1966. –С.12.



ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun yaqin atrofdagi aholi manzilgohlari tahlil qilinadi. Klaster so'rovi davomida asosiy tayanch nuqtadagi materiallarni yig'ish besh-yetti kun, qo'shimcha jihatlarini tahlil qilish bir-ikki kunda amalga oshiriladi. Klaster so'rovi turli yo'llar bilan marshrut tadqiqotiga bog'lanadi. Bu holda ekspeditsiya bitta marshrut bilan bog'langan klaster tadqiqot zanjiri hosil qiladi ⁴.

Etnografik dala tadqiqotlarida so'rovnomalarning quyidagi turlari va tegishli so'rov shakllari keng qo'llaniladi, a) mahalliy aholi mustaqil ravishda erkin javob beradigan anketalar, b) dala ishlari davomida etnograflarning o'zlari rahbarlik qiladigan so'rovnomalar. Bu turdagi anketalar o'z navbatida, ekspeditsiyaga tayyorgarlik ko'rish uchun oldindan tuzilgan mavzuli so'rovnomalar deb nomlanadi. Aytish aytish lozimki, barcha turdagi anketalar bilan ishlashning muhim shartlaridan biri ularning yordamida to'plangan ma'lumotlarning tarixiyligini ta'minlashdir. Ba'zi hollarda o'rganilayotgan hodisaning xususiyatlari hatto bir martalik so'rovnoma orqali ham tarixiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga imkon beradi.

Keyingi jarayon ekspeditsiyani moddiy ta'minlash sanaladi. Ishlarning samarali borib, kengayishida fotokamera, daftar, ovoz yozish apparatlari singari texnik ashyolardan foydalanish jarayonning unumli bo'lishiga yo'l ochadi. Dala ishlarining asosiy ko'rinishlaridan biri: tadqiqotchilarning shaxsiy kuzatishlarida turli masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar yig'iladi. Guruh a'zolari foydali grafik ma'lumotlar yozilgan kundalik yuritishi zarur hisoblanib, bunday yozuv va kuzatishlarning qiymati xodimning kuzatuv yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Aytish joizki, tadqiqot mavzumizda ham ekspeditsiya a'zolarining kundaliklari va hisobotlari qimmatli manba sifatida o'rganildi.

Xullas, etnografiyada dala tadqiqotlarining ahamiyati yuqori sanaladi. Xalqning etnogenezi, etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishni ekspeditsiyalarsiz tasavvur qilish mushkuldir. Xalq madaniyatini, maishiy turmushini amalda o'rganishda dala tadqiqotlari samarali

⁴ Громов Г.Г. Методика этнографических экспедиций. –М., 1966. –С.13.



usullardan hisoblanadi. Ekspeditsiya muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillar quyidagilardan iborat: tadqiq qilinishi zarur bo'lgan aholining madaniyat darajasi, ekspeditsiya oldiga qo'yilgan vazifa va mavzularning aniqligi, mazkur aholining o'rganilganlik darajasi va qatnashchilarning tayyorgarligini jiddiy amalga oshirish. Ushbu omillar dala tadqiqotlarning ish tartibi va ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Дониёров А.Х. Хоразм археология-этнография экспедицияси Ўзбекистон этнография фанида . –Т.: 2007.
2. Громов Г.Г. Методика этнографических экспедиций. –М., 1966.
3. Салимов Т.Ў. Этнографик экспедициялар ўтказиш услублар, - Т.:”Университет”,1993-й
4. Клавдия Леонтьевна Задыхина. (Группа товарищей) //Советская этнография . №4. Москва. 1970
5. Дониёров А.Х, Бўриёв О, Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи.-Т.: Янги нашр,2011.
6. www.ziyonet.uz